

TRASOLOGIK EKSPERTIZADA KIYIMLARDAGI SHIKASTLANISH IZLARINING KRIMINALISTIK AHAMIYATI

Saidqulova Mashhura Ikromjon qizi
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
3-o'quv kursi kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada trasologik ekspertiza bo'limining bir turi bo'lgan kiyimlardagi shikastlanish izlarining kriminalistik ahamiyatini o'rganish, tadqiqotga kelgan obyektни tekshirish jarayoni.*

Аннотация: *В данной статье исследуется криминалистическое значение следов повреждений на одежде, являющихся разновидностью трасологической экспертизы, процесса осмотра объекта, поступившего на исследование.*

Annotation: *This article examines the forensic significance of traces of damage on clothing, a type of forensic examination, and the process of examining an object submitted for investigation.*

Kalit so'zi: *Trasologiya, identifikatsion belgilar, kiyimlardagi mexanik shikastlanishlar, kiyimlardagi shikastlanishlarni bo'laklariga qarab identifikatsiya qilish.*

Ключевые слова: *Трасология, опознавательные знаки, механические повреждения одежды, выявление повреждений одежды по частям.*

Keywords: *Traceology, identification marks, mechanical damage to clothing, identification of damage to clothing by fragments.*

Bugungi kunda ichki ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratilayotgani, sohada o'z burchi va qasamyodiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar xodimlar soni ko'payib borayotganini islohotlarimizning eng muhim natijasi sifatida qabul qilamiz. Shiddat bilan o'zgarayotgan bugungi murakkab zamonda dunyoning turli mintaqalarida hukm surayotgan notinch vaziyatlar, qurolli to'qnashuvlar har birimizni doimo hushyor va ogoh bo'lishga undaydi. Bunday sharoitda uyushgan transmilliy jinoyatchilik, terrorizm va ekstremizm, narkobiznes, korrupsiya kabi tahdidlarga qarshi samarali kurashish, ularga keskin zarba berish tobora dolzarb ahamiyat kasb etadi".

Jinoyatchilar tomonidan sodir etilgan harakatlar atrof muhitda o'ziga xos ravishda qolgan izlarda ifodalanadi. Bu izlar esa kriminalistika sohasida moddiy izlar deb ataladi. Moddiy izlarni aniqlash, ularni hisobga olish va tekshirish usullarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish, yuzaga kelish qonuniyatlarini zamonaviy texnika asosida tahlil qilish, shuningdek zamonaviy kriminalistik texnika sohasi bo'lgan izlar to'g'risidagi kriminalistik ta'lim yoki trasologiyaning vujudga kelishiga asos bo'ldi. Kriminalistikaning izlar haqidagi bo'limini ilk bor "trasologiya" deb atashni taklif qilgan. I. N. Yakimov ushbu bo'limga kriminalistik jihatdan alohida ahamiyat qaratib, hozirgi vaqtda kriminalistikada ashyoviy dalillar va izlar haqidagi ta'limot yoki "trasologiya" birinchi darajali ahamiyatga egaligini ta'kidlagan.

Trasologiyaning bir bo'limi hisoblangan kiyimlardagi shikastlanish izlarini o'rganish, tadqiq etish zamonaviy kriminalistika nazariya va amaliyotida kengroq tushuncha sifatida qo'llanilmoqda, chunki, hozirgi kunda nafaqat kiyimlardagi jarohatlar, balki, kiyimlar bilan turli buyumlar va atrof-muhit bilan ta'sirlashishning barcha oqibqtlari ham tadqiq etilmoqda.

Kiyimlardagi shikastlanish va jarohatlar hamda ularni izlarining kriminalistik tadqiqotlari tergov harakatlarini qiziqtiruvchi juda ko'plab savollar doirasini aniqlashga hamda ushbu savollarga ko'rilayotgan jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlash maqsadida aniq javoblarni topishga imkon yaratadi.

Hodisa sodir bo'lgan joyda kiyimlar turli xil holatda, kiyimlar qatlamma-qatlam va ketma-ketlik bilan, ustki kiyimdan boshlanib, ichki kiyimgacha, kiyimdagi jarohatlarni odam tanasidagi jarohatlarga mosligiga alohida e'tibor berib tekshiriladi. Kiyimni o'rab joylashtirishda kiyimni taxlash chiziqlari jarohatlar sohasiga to'g'ri kelmasligi lozim. Agar kiyim nam bo'lsa yoki qon shimilgan bo'lsa, uni ekspertizaga taqdim etishdan oldin quritilishi kerak.

Ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish quyidagi bosqichlarda o'tkaziladi:

- dastlabki tadqiqotlar
- alohida tadqiqotlar
- natijalarni baholash
- ekspertiza materiallarini rasmiylashtirish kabi turlarga bo'linadi.

Kiyimlardagi mexanik shikastlar shakli, o'lchamlari, tuzilishi, individual belgilarini aniqlash uchun ko'zdan kechiriladi. Bunda mexanik shikastlarning uni aynan jarohat sifatida ifodalovchi guruhiy belgilariga va individual belgilariga e'tibor berish kerak. Kiyimlardagi mexanik shikastlarning ko'zdan kechirish uning tuzilishi va o'lchamlarini o'rganishdan boshlanadi. Ekspertiza xulosasi matnida buyum va uning alohida qismlarining nomlanishi bir xilda bo'lishi zarur.

Kiyimlardagi mexanik shikastlarda quyidagilar o'lchanadi:

- jarohatning to'g'ri o'q bo'yicha umumiy uzunligi
- jarohatning asosi va o'rtasidagi kengligi
- jarohatning qalinligi
- jarohatning kiyimni aynan qayerida joylashganligi bilan tavsiflanadi.

Bunday jarayonda kiyimdagi aniqlangan jarohatlarning turi, shakli, o'lchamlari, miqdori va joylashgan sohalari aniq ko'rsatiladi. Agar jarohatlar kiyimning turli elementlari (ustki va ichki kiyimlarida joylashgan bo'lsa, ularni o'zaro solishtirish lozim). Ko'p qatlamli kiyimlardagi jarohatlarni tekshirishda, bunday kiyimlarning ichki qatlamlarini ham alohida tekshirish kerak. Taqqoslash yuqori sifatli bo'lishi uchun tekshirilayotgan obyektidagi jarohatning asosiy xususiy identifikatsion belgilarini aniqlash va ularni yig'ib kerakli xulosa chiqarish kerak. Taqqoslashda jarohat yetkazgan qurol yoki predmetni ajratib olishga imkon beruvchi belgilar yig'indisini hisobga olish zarur. Keyingi tadqiqotlarda esa o'sha belgilar alohida taqqoslanib, tekshirilayotgan va namuna obyektlari belgilari mos kelishi yoki mos kelmasligi, o'xshashligi yoki o'xshash emasligi aniqlab olinadi. Agar belgilar o'zaro o'xshash bo'lmasa, bu farqlarning sabablari ham ko'rsatib o'tiladi. Bu kiyimdagi shikastlanish belgilarini

aniqlashning bir bosqichi bo'lib, shu va shunga o'xshash bir qancha bosqichlarda ekspertiza yo'li bilan aniqlash imkoniyatlari mavjud. Shuningdek, hozirgi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatlarni oldini olish va ochish bo'yicha faoliyatlarini samarali amalga oshirishni kriminalistikaga yangi axborot texnologiyalari, birinchi navbatda shaxsiy kompyuterlarni jalb etmasdan tasavvur qilish qiyin. Shaxsiy kompyuterlarning kichik o'lchamdaligi, ularni iqtisodiy jihatdan tejamliligi, ulardan ixtiyoriy ish joyida foydalanish, shuningdek, istalgan vaqtda kerakli manbalar tarmoqlariga elektron-hisoblash mashinalar orqali ulanish imkoniyatini beradi.

Bunday turdagi texnologiyalardan keng foydalanish, ularni amaliyotga tatbiq etish, kelgusida ish samaradorligining yanada oshishiga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning "Ichki ishlar organlari xodimlari kuni" munosabati bilan tabrigi // <https://iiv.uz/news/>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng joriy etgan holda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 08.02.2022
3. Trasologik ekspertiza: Darslik / S.A. Nurumbetova, T.B. Mamatqulov, X.A.Turabbayev va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 2022.
4. Trasologik ekspertizasi bo'yicha qo'llanma.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng joriy etgan holda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 08.02.2022
6. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni. Xalq so'zi. 2016-yil 17-sentabr. №184-son.
7. <https://daryo.uz/2016/10/22/> shavkat mirziyoyev "jinoyatchilikning oldini olish har qanday jinoyatga adolatli baho berishga qaratilgan ishlarimiz keskin kuchaytiriladi" nutqi.